



№5

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



**ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026**

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budget daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
2.	Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
3.	Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебугова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижли модели учун барқарорлик таҳлили	19
4.	Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
5.	Abduqayumov Elyorbek Ulug'bek o'g'li, Yo'ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ta'siri	33
6.	Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo'yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
7.	Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellash	46
8.	Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	O'zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
9.	Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
10.	Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
11.	Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o'rni	80
12.	Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o'g'li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
13.	Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
14.	Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish	111
15.	Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
16.	Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
17.	Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
18.	Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
19.	Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni	150
20.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo'l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
21.	Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165





22.	Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budget tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
23.	Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O‘zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
24.	Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194





O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI

Maxkamova Nazokat Umarali qizi

“PLATINUM TRAST PRO” MCHJ iqtisodchisi

E-mail: nazokatkurbanaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni va makroiqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi TTXI oqimlari dinamikasini baholash hamda ularning iqtisodiy o‘lish, asosiy kapital shakllanishi, ishlab chiqarish, eksport salohiyati va bandlikka ta‘sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. 2017–2025-yillardagi investitsiya jarayonlari O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank va tegishli davlat organlari ma‘lumotlari asosida tahlil qilingan. Natijalar TTXI hajmining sezilarli o‘lishini ko‘rsatgan. 2025-yilda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar 400,8 trln so‘mga yetgan. Investitsiyalar sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya faolligi, iqtisodiy o‘lish, asosiy kapital, investitsiya siyosati, texnologiya transferi, eksport, bandlik.

РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Махкамова Назокат Умарали кизи

Экономист ООО «PLATINUM TRAST PRO»

E-mail: nazokatkurbanaliyeva@gmail.com

Аннотация. В статье исследуются роль и макроэкономическое значение прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в экономике Узбекистана. Основной целью исследования является оценка динамики потоков ПИИ и определение их влияния на экономический рост, формирование основного капитала, производство, экспортный потенциал и занятость. В исследовании применены системный подход, сравнительный анализ, статистическая группировка, анализ динамических рядов и логическое обобщение. Инвестиционные процессы за 2017–2025 годы проанализированы на основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, Центрального банка и соответствующих государственных органов. Результаты показывают значительный рост объемов иностранных инвестиций. В 2025 году объем инвестиций в основной капитал за счет ПИИ и кредитов достиг 400,8 трлн сумов. Разработаны научно-практические предложения по повышению качества и экономической эффективности ПИИ.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, инвестиционная активность, экономический рост, основной капитал, инвестиционная политика, трансфер технологий, экспорт, занятость.

THE ROLE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Makhkamova Nazokat Umarali qizi

Economist at “PLATINUM TRAST PRO” LLC

E-mail: nazokatkurbanaliyeva@gmail.com

Abstract. This article examines the role and macroeconomic significance of foreign direct investment (FDI) in the economy of Uzbekistan. The main objective is to assess the dynamics of FDI flows and determine their impact on economic growth, fixed capital formation, production,





export potential, and employment. The study applies a systematic approach, comparative analysis, statistical grouping, time-series analysis, and logical generalization. Investment processes during 2017–2025 were analyzed using data from the National Statistics Committee of Uzbekistan, the Central Bank, and relevant government authorities. The findings indicate a significant increase in foreign investment flows. In 2025, investment in fixed capital financed by FDI and loans reached UZS 400.8 trillion. Scientific and practical recommendations are proposed to improve FDI quality and economic efficiency.

Keywords: foreign direct investment, investment activity, economic growth, fixed capital, investment policy, technology transfer, export potential, employment.

Kirish.

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va xalqaro kapital harakatining jadallashuvi sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi hamda tarkibiy transformatsiyasini ta‘minlovchi muhim iqtisodiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun TTXI ichki moliyaviy resurslar yetishmovchiligini qoplash, investitsion faollikni oshirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishda muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi nafaqat kapital oqimini ko‘paytiradi, balki zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarning kirib kelishi, ilg‘or korporativ boshqaruv tajribasining o‘zlashtirilishi, xalqaro ishlab chiqarish va sifat standartlarining joriy etilishiga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, TTXI mahalliy korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mehnat unumdorligini yuksaltirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlashga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar orqali milliy ishlab chiqaruvchilarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi jadallashib, mahalliy xomashyo va resurslardan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga yo‘naltirilgan holda foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Natijada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotning texnologik yangilanishi, tarmoqlar diversifikatsiyasi, eksport tarkibining takomillashuvi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biriga aylanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlarning faollashuvi so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim natijalaridan biridir. Mamlakatda valyuta bozorining liberallashuvi, tadbirkorlik faoliyatiga ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish va investorlar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish xorijiy kapital uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirmoqda.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, asosiy kapitalga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi 2017-yildagi 12,8 trln so‘mdan 2025-yilda 400,8 trln so‘mga yetgan. 2025-yilda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 43,1 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, shundan 38,2 mlrd dollari TTXI hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining o‘shishi o‘z-o‘zidan iqtisodiy samaradorlikni kafolatlamaydi. Xorijiy kapitalning real ta‘siri uning qaysi tarmoqlarga yo‘naltirilayotgani, yangi ish o‘rinlari yaratishi, mahalliy ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, texnologiya transferini ta‘minlashi va eksport salohiyatini oshirishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri xalqaro iqtisodiyot nazariyasi va investitsiyalar iqtisodiyotining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda TTXI nafaqat kapital oqimi, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi, mehnat unumdorligi hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini mamlakatga olib kiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy





investitsiyalarning iqtisodiy samarasi ularning hajmi bilan bir qatorda, tarmoq tarkibi, texnologik mazmuni va milliy iqtisodiyot bilan integratsiyalashuv darajasiga ham bog‘liq.

TTXI nazariyasining rivojlanishida J.H. Dunningning ilmiy yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Uning *“Multinational Enterprises and the Global Economy”* asarida ko‘p millatli korxonalarning xalqaro faoliyati va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy asoslari tizimli ravishda yoritilgan. Dunning yondashuvida TTXI faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki transmilliy kompaniyalarning ishlab chiqarish, texnologik va boshqaruv imkoniyatlarini boshqa mamlakatlarga olib kirishi bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Mazkur nazariy yondashuv O‘zbekistonda TTXI ning iqtisodiy transformatsiyadagi o‘rnini baholash uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

TTXI va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik E. Borensztein, J. De Gregorio va J.-W. Lee tomonidan tadqiq etilgan. Mualliflarning *“How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth?”* nomli ilmiy ishida TTXI ning iqtisodiy o‘shishga ta’siri, xususan, kapital oqimlari va texnologiyalarning tarqalishi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot TTXI ning iqtisodiy o‘shishga ta’siri bevosita va avtomatik tarzda shakllanmasligini, balki mamlakatning inson kapitali va mavjud iqtisodiy salohiyati kabi omillar bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

L. Alfaro, A. Chanda, S. Kalemli-Ozcan va S. Sayek tadqiqotlarida esa TTXI va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi munosabatlarda mahalliy moliyaviy bozorlarning roli alohida o‘rganilgan. Mualliflar TTXI ning iqtisodiy o‘shishga ta’sirini mamlakatdagi ichki moliyaviy institutlar va moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi bilan bog‘laydilar. Mazkur yondashuv O‘zbekiston sharoitida xorijiy kapital samaradorligini baholashda investitsiyalarning o‘zi bilan bir qatorda, ularni qabul qiluvchi moliyaviy va institutsional muhitni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida TTXI dinamikasini o‘rganishda milliy va xalqaro statistik ma’lumotlar muhim empirik manba hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari asosiy kapitalga TTXI va kreditlar hisobidan yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini tahlil qilish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xalqaro investitsion pozitsiya va to‘lov balansi bo‘yicha ma’lumotlari mamlakatdagi tashqi kapital harakatlarini baholash uchun muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, UNCTAD va Jahon bankining statistik ma’lumotlari O‘zbekistondagi investitsiya jarayonlarini xalqaro tendensiyalar bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, TTXI ning iqtisodiy o‘shishga ta’siri bo‘yicha nazariy va empirik yondashuvlar shakllangan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida xorijiy investitsiyalar hajmining o‘shishi bilan ularning iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks baholash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, investitsiyalarning tarmoqlar va hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, texnologik darajasi, mahalliyashtirish ko‘lami, eksportga ta’siri hamda yaratilayotgan ish o‘rinlari kabi ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Mazkur maqolada ham investitsiyalar hajmining ortishi o‘z-o‘zidan yuqori iqtisodiy samaradorlikni kafolatlamasligi, shu sababli TTXI ning sifati va iqtisodiyotga ta’sir kanallarini alohida baholash zarurligi asoslangan.

Shu asosda mazkur tadqiqotning ilmiy yo‘nalishi O‘zbekistonda TTXI dinamikasini 2017–2025-yillar kesimida tahlil qilish, uning asosiy kapital shakllanishi va iqtisodiy faollikdagi o‘rnini baholash, shuningdek, investitsiyalarning texnologik, hududiy va iqtisodiy samaradorligi bilan bog‘liq jihatlarni aniqlashdan iborat. Ushbu yondashuv maqolaning tadqiqot maqsadi, metodologiyasi va natijalar qismi bilan uzviy bog‘lanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda dinamik tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.


Natijalar

O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy kapital ishtirokining kuchayishi so‘nggi yillarda





investitsion faollikning asosiy tendensiyalaridan biriga aylandi.



1-rasm. O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, 2017–2025-yillarda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi bir necha barobar oshgan. Ayniqsa, 2023–2025-yillar oralig‘ida o‘shirish sur‘atlari keskin kuchaygan. Bunday dinamikaning shakllanishida investitsiya muhitining liberallasuvi, energetika va infratuzilma loyihalarining kengayishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi hamda xorijiy kompaniyalarning O‘zbekiston bozoriga kirib kelishi muhim rol o‘ynagan.

2025-yilda mamlakatda 43,1 mlrd dollarlik investitsiya o‘zlashtirilgani va uning 38,2 mlrd dollari TTXI hissasiga to‘g‘ri kelgani xorijiy kapitalning investitsion jarayonlarni moliyalashtirishdagi rolini yanada kuchayganini ko‘rsatadi.

TTXI iqtisodiyotning asosiy kapital bilan ta‘minlanganligini oshirishning muhim manbalaridan biridir. Asosiy kapitalga investitsiyalarning kengayishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi.

2025-yilda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 400,8 trln so‘mga yetdi. 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 327,6 trln so‘m bo‘lgan. Demak, bir yil ichida qariyb 73,2 trln so‘mlik qo‘shimcha investitsiya shakllangan.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga TTXI hajmi ham sezilarli oshgan: ushbu ko‘rsatkich 2020-yildagi 867,1 ming so‘mdan 2025-yilda 6 492,2 ming so‘mgacha ko‘tarilgan. Biroq bu o‘shirishni faqat investitsiya hajmining ko‘payishi bilan izohlash yetarli emas. Investitsiyalarning texnologik mazmuni va iqtisodiy samaradorligi ham baholanishi kerak.

Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan TTXI iqtisodiy o‘shirishga bir necha asosiy kanallar orqali ta‘sir ko‘rsatadi. Birinchi kanal — kapital jamg‘arilishi. Xorijiy kapital yangi korxonalar, ishlab chiqarish liniyalari va infratuzilma obyektlarini yaratishga yo‘naltiriladi. Ikkinchi kanal — texnologiya transferi. Xorijiy kompaniyalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarning olib kirilishi mahalliy ishlab chiqarishning texnik darajasini oshiradi.

Uchinchi kanal — mehnat unumdorligi. Yangi texnologiyalar va boshqaruv usullari bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmini oshiradi. To‘rtinchi kanal — eksport. Xalqaro kompaniyalarning mavjud savdo tarmoqlaridan foydalanish orqali O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati kengayadi. Beshinchi kanal —





raqobat va spillover effekti bo‘lib, xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi mahalliy korxonalarni mahsulot sifati va samaradorligini oshirishga undaydi.

2025-yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 81 mlrd dollardan oshgan, eksport hajmi esa 33,8 mlrd dollarga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichlar investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq TTXI va YaIM o‘rtasidagi qat’iy sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash uchun alohida ekonometrik model talab etiladi.

Investitsiyalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi ularning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. 2025-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga TTXI hajmi Navoiy viloyatida 21,34 mln so‘m, Namangan viloyatida 11,87 mln so‘m, Buxoro viloyatida 8,65 mln so‘mni tashkil etgan. Respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 6,49 mln so‘m bo‘lgan.

Mazkur tafovut hududlarning tabiiy resurslari, sanoat bazasi, infratuzilmasi, transport imkoniyatlari va investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlari bilan bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya siyosatining keyingi bosqichida hududlar o‘rtasidagi investitsion tafovutlarni kamaytirishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Muhokama

Olingan natijalar O‘zbekistonda TTXI oqimlari so‘nggi yillarda sezilarli kengayganini ko‘rsatadi. Biroq investitsiyalarning iqtisodiyotga ta‘sirini faqat hajm bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Avvalo, investitsiyalarning sifati muhim. Xorijiy kapitalning yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarga yo‘naltirilishi uning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, mahalliyashtirish darajasi investitsiya samaradorligining muhim ko‘rsatkichidir. Agar xorijiy korxona import qilinadigan butlovchi qismlarni yig‘ish bilan cheklansa, uning iqtisodiyotga bilvosita ta‘siri cheklangan bo‘lishi mumkin. Aksincha, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan kooperatsiya rivojlansa, investitsiyaning multiplikativ samarasi kuchayadi.

Uchinchidan, texnologiya transferiga alohida e‘tibor berish zarur. Xorijiy investitsiyalarning strategik afzalligi kapitalning o‘zida emas, balki investor bilan birga kirib keladigan texnologiya, bilim va boshqaruv kompetensiyalaridadir.

To‘rtinchidan, investitsiyadan keyingi xizmatlar tizimini rivojlantirish zarur. Investorni mamlakatga olib kirish investitsiya siyosatining faqat birinchi bosqichidir. Uning keyinchalik faoliyatini kengaytirishi, qayta investitsiya qilishi va yangi loyihalarni amalga oshirishi uchun huquqiy, infratuzilmaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash davom ettirilishi kerak.

Beshinchidan, TTXI oqimlari statistikasi va ularning iqtisodiy natijalarini baholash tizimini takomillashtirish zarur. Har bir yirik loyiha bo‘yicha yaratilgan ish o‘rinlari, eksport hajmi, mahalliyashtirish darajasi, texnologiya transferi va soliq tushumlari kabi indikatorlarni kuzatib borish investitsiya siyosati samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri yashil investitsiyalardir. Energetika tizimini modernizatsiya qilish, quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza ishlab chiqarish loyihalari kelgusida xorijiy kapitalni jalb qilishning muhim segmentlariga aylanishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot, fintech, elektron tijorat, sun‘iy intellekt va telekommunikatsiya infratuzilmasi ham yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatiga ega.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli so‘nggi yillarda sezilarli oshganini ko‘rsatdi. 2017–2025-yillarda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi keskin o‘sib, 2025-yilda 400,8 trln so‘mga yetgan. Xorijiy kapital mamlakatda kapital jamg‘arilishini tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishning muhim manbalaridan biriga aylanmoqda.

Biroq TTXIning iqtisodiy samarasi investitsiya hajmidan ko‘ra uning tarmoq tarkibi,





texnologik darajasi, mahalliyashtirish va eksportga ta'siri bilan ko'proq belgilanadi. Shu bois investitsiya siyosatida miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat ko'rsatkichlariga bosqichma-bosqich o'tish zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: 1) yuqori texnologiyali TTXI uchun natijadorlikka asoslangan differensial rag'batlantirish tizimini joriy etish; 2) yirik investitsiya loyihalarining post-investitsion monitoringini kuchaytirish; 3) xorijiy korxonalar va mahalliy yetkazib beruvchilar o'rtasidagi kooperatsiyani rag'batlantirish; 4) investitsion salohiyati past hududlarda transport, energetika va raqamli infratuzilmani rivojlantirish; 5) investor uchun davlat xizmatlarini yagona raqamli platformaga birlashtirish; 6) yashil va raqamli investitsiyalarni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llab-quvvatlash; 7) muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan investorlarning qayta investitsiya qilishini rag'batlantirish.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotida TTXI kapital taqchilligini qoplash vositasidan iqtisodiy transformatsiya instrumentiga aylanib bormoqda. Kelgusi bosqichda asosiy e'tibor investitsiyalar hajmini ko'paytirishdan tashqari, ularning sifati, texnologik mazmuni va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Aynan shunday yondashuv TTXIning uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, eksport diversifikatsiyasi, bandlik va milliy ishlab chiqarish raqobatbardoshligiga qo'shadigan hissasini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi. SIAT statistik ma'lumotlar bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. 2025-yilda O'zbekistonda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 43,1 mlrd AQSh dollariga yetdi. 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. International Investment Position and Balance of Payments of the Republic of Uzbekistan. 2026.
4. Invest Uzbekistan. Uzbekistan Investment Guide 2025.
5. Dunning, J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. Addison-Wesley.
6. Borensztein, E., De Gregorio, J., Lee, J.-W. How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth? Journal of International Economics. 1998. Vol. 45, Issue 1. P. 115–135.
7. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., Sayek, S. FDI and Economic Growth: The Role of Local Financial Markets. Journal of International Economics. 2004. Vol. 64, Issue 1. P. 89–112.
8. World Bank. World Development Indicators.
9. UNCTAD. World Investment Report.

